



ТИҚХММИ

Тошкент Ирригация ва Қишлоқ Хўжалигини
Механизациялаш Муҳандислари Институтини

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ТОШКЕНТ ИРРИГАЦИЯ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ МЕХАНИЗАЦИЯЛАШ МУҲАНДИСЛАРИ ИНСТИТУТИ



“ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ”

мавзусидаги анъанавий **XX** - ёш
олимлар, магистрантлар ва
иқтидорли талабаларнинг илмий
- амалий анжумани

20

XX - traditional Republic
scientific - practical conference of
young scientists, master students
and talented students under the
topic

“THE MODERN PROBLEMS OF
AGRICULTURE AND WATER
RECOURCES”

МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ

III қисм

Тошкент – 2021 йил, 25 – 26 май

| | | | |
|-----|--|---|-----|
| 10. | Ovlaqulov S - Ilmiy rahbar . - Ro'ziboyeva M- Talaba | Is gazidan zaharlanish va undan himoyalaniш choralari | 698 |
| 11. | Шермухамедов Х- катта ўқитувчи Алжанов Ф. – магистрант, | Хавфсизликни тaминлашда замонавий-инновацион технологияларнинг ўрни | 702 |
| 12. | Кобилов Н., магистрант ТИИИМСХ Мирхосилова М., магистрант ТИИИМСХ Шермухаммедов Х, старший преподаватель ТИИИМСХ | Сравнение изобретений в области пожаротушения | 706 |
| 13. | Н. Кобилов магистранти. З. Мирхасилова ТИҚХММИ “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” кафедраси доцент, PhD. | Гидромелиорация тизимини ишлатишда хавфсизлик талаблари | 710 |
| 14. | Шоназаров Жонибек Ёмғирович ТИҚХММИ Қарши филиали, ўқитувчи Умаров Исомиддин Инок ўғли ТИҚХММИ Қарши филиали- магистранти | Сув ресурсларини муҳофаза қилиш | 712 |
| 15. | Ш. Тиркашева ХФХ-306, З.Мирхасилова ХФХ кафедра доценти, PhD | Сел оқимининг олдини олиш чора тадбирлари. | 716 |
| 16. | Акбаралиева Мархабо Хайрулла қизи - талаба. Ражабов Нурмамат Қудратович (PhD)- ТИҚХММИ, “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” кафедраси доценти. | Фавқулodда вазиятларда электр энергетика объектларининг барқарорлигини таъминлаш | 721 |
| 17. | Ж. Абдулхамидов- талаба, Т. Ҳайдаров-ТИҚХММИ доценти | Чорвачилик фермаларида ёнгин сабабларини ўрганиш | 725 |
| 18. | Э. Олимжонов-ТИҚХММИ магистранти, Т. Ҳайдаров- ТИҚХММИ доценти | Тракторчига титрашни салбий таъсирини ўрганиш | 728 |
| 19. | Ш.Хожиева Тошкент фармацевтика институтини ассистенти И.Турдиев ММ, ИЧТЖХ мутахассислиги 1-босқич магистранти | Меҳнат муҳофазаси ишлари самарадорлигини оширишнинг муҳим омили | 730 |

Фойдаланилган адабийтлар:

1. Ўзбекистон Республикаси "Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулдда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида"ги қонуни. 20 август 1999 й
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 8 августдаги 601-сон Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 24 августдаги 242-қарори.

IS GAZIDAN ZAHARLANISH VA UN DAN HIMOYALANISH CHORALARI.

Ilmiy rahbar - **Oblaqulov S.Talaba-Ro‘ziboyeva M.**

Annotatsiya

Qish mavsumi boshlanishi bilan uylarni isitish muammosi paydo bo'la boshlaydi. Isitish vositlaridan noto'g'ri foydalanish va talabga javob bermaydigan qurilmalardan foydalanish bir qator ko'ngilsiz vaziyatlarni keltirib chiqaradi shulardan bittasi is gazidan zaharlanish. Statistik ma'lumotlardan shu ma'lum bo'lyaptiki oxirgi paytlarda is gazidan zahrlanishlar soni oshdi. Ko'pgina odamlarning is gazidan qurbon bo'lishi bu muammo haqida churur o'ylab ko'rishimizni taqozo etadi. Ushbu maqolada is gazidan zaharlanish nima va undan qanday himoyalani sh choralar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Is gazi* , karboksigemoglobin, zaharlanish belgilar, tabiiy gaz, CO₂,

Is gazi nima?

Is gazi (uglerod oksidi) — rangsiz, ta'msiz, hidsiz zaharli gaz. Kimyoviy formulasi — CO₂. U yer yuzida energiyaning jadal ishlatilishidan yuzaga keluvchi, tabiatda eng ko'p tarqalgan zaharlovchi gazlardan biri hisoblanadi. Qazib olinadigan yoqilg'ilarning to'liq yonmasligi is gazining bosh manbai hisoblanadi. U asosan ko'mir, tabiiy gaz va boshqa yoqilg'ilarning to'liq yonmasligi sababli yuzaga keladi.[1]

Ma'lumki is gazi (SO) rangsiz, hidsiz, korxonalar sharoitida eng ko'p uchraydigan zaharli birikma bo'lib, tabiiy gaz, yoqilgi, ko'mir, o'tin cho'glari to'liq yonmasligi oqibatida vujudga keladi. Tutun tarkibida 3 %, ishlangan gazda 13 %, portlovchi gazlar tarkibida esa 50-60% gacha is gazi bo'ladi. Is gazi organizmga nafas a'zolari orqali ta'sir etadi. Ushbu gaz gemogloblin bilan kislorodga nisbatan 300 marotaba kuchli birikma - karboksigemoglobin hosil qiladi. Oqibatda gemoglobinning to'qimalarga kislorod tashish xususiyati keskin pasayib, gipoksiyaga, og'ir xolatlarida esa – anoksiya va o'lim xolatiga olib kelishi mumkin. Is gazidan shamollatish tizimi yaxshi ishlamaydigan organik moddalarni ishlab chiqaradigan korxonalarda, avtoulavlar turar parklarda, yangi bo'yalgan va shamollatilmagan xonalarda, shuningdek uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda va pechka bilan istiladigan uylar, hammomlarda, dam olish palatklarida yonuvchi moddaning to'liq yonmasligi natijasida zaharlanib qolish mumkin.[2]

Nafas olinuvchi havo tarkibida 0,1 foiz is gazining bo'lishi o'lim holatiga olib kelishi mumkin. Is gazi organizmga tushganda, u qon tarkibidagi gemogloblin va kislorod tashuvchi

eritrotsitlarni o‘zaro bog‘lab, kislorodning tana bo‘ylab harakatlanishini cheklaydi. Natijada inson xushini yo‘qotadi.[3]

Is gazidan zaharlanishning umumiy belgilari

Bosh miya tizimida: uyquga tortish, bosh aylanishi, bosh og‘rig‘i, hushini yo‘qotish;

Ko‘rish tizimida: ko‘z oldining qorong‘ilashishi;

Eshitish tizimida: eshitish qobiliyatining pasayishi;

Teri qismida: terlash kuchayishi;

Nafas olish tizimida: nafas olishning og‘irlashishi, yo‘tal;

Yurak qismida: puls va arteriya bosimining ortishi;

Mushaklar tizimida: tremor (qaltirash).[3]



Qanday holatlarda is gazidan zaharlanish xavfi yuqori bo‘ladi?

Hozirda savdo do‘konlarida sotilayotgan, gazda ishlaydigan har xil turdagi gaz uskunalari, jumladan, Eronda ishlab chiqilgan “kamin” gaz uskunasini isitish mavsumida ishlatib, keyin olib qo‘yish mumkin. Kompaniya tomonidan ma’lum qilinishicha,

ushbu gaz uskunasi boshqa davlatda ishlab chiqilgani sabab uni o‘rnatish va foydalanishga doir texnik pasport o‘zbek yoki rus tillariga tarjima qilinmagan. Buning oqibatida, undan foydalanishdagi xavfsizlik qoidalari bilan tanishish imkoni bo‘lmaydi. Mazkur gaz uskunasi o‘zboshimchalik bilan, mutaxassisning ko‘rsatmasisiz qurilish me‘yorlari va qoidalari talablarini buzgan holatda o‘rnatilmoqda. Natijada esa insonlar is gazidan zaharlanib vafot etmoqda. Aholi orasida is gazidan zaharlanish holatlari, gaz tarmoqlaridagi avariya hamda ularning oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar soni so‘nggi vaqtda tez-tez kuzatilmoqda. Statistik bo‘layotga ma’lumotlarga ko‘ra, respublikada so‘ngi uch yil ichida kuzgi – qishki isitish mavsumida sodir bo‘layotgan favqulotda vaziyatlarning aksariyati is gazidan zaharlanish hollari bilan bog‘liq.[4]



Tabiiy gazdan foydalanishda nimalar taqiqlanadi?

O‘zboshimchalik bilan uyni gazlashtirish, gaz asbobi o‘rnini almashtirish, uni yangilash va tuzatish;

Gaz asboblari o‘rnatilgan xonalar rejasini o‘zgartirish;

Dudburon va shamollatish tizimlarini o‘zgartirish;

Xavfsizlik va sozlash avtomatikasini uzib qo‘yish;

Maktabgacha yoshdagi bolalar, shuningdek o'z harakatlarini nazorat qila olmaydigan shaxslarning gaz asboblaridan foydalanishi;

Gaz va gaz asboblaridan boshqa maqsadlarda foydalanish;

Gaz asboblari o'rnatilgan xonada uxlash va dam olish;

Suyultirilgan gazdan foydalanishda nimalar taqiqlanadi?

Bo'sh va suyultirilgan gazli ballonlarni xona hamda yerto'lalarda saqlash;

Gazlashtirilgan xonaga 50—55 litr sig'imli ballondan bittadan ortiq yoki 27 litrli ballondan ikkitadan ortiq qo'yish;

Ballonlarni qizishdan saqlaydigan to'siq o'rnatilgan bo'lsa, ballon bilan isitish asbobining oralig'i yarim metrgacha qisqartirilishi mumkin, ballon bilan to'siqning orasi esa 10 santimetrdan kam bo'lmasligi kerak;

Ballonlar bilan o't yoqish eshigining oralig'i 2 metrdan oz bo'lmasligi lozim;

Xonaga o'rnatilgan ballonlar almashtirilayotganda elektr yoritkichlarni yoqib-o'chirish, ochiq olovdan, elektr isitish asboblari va isitish pechkalaridan foydalanish;

Ballonlarni almashtirish ishlari bilan bog'liq bo'lmagan shaxslar borligida ballonlarni almashtirish.[3]

Gazdan zaharlanganda birinchi yordam qanday ko'rsatiladi?

Barcha holatdagi og'ir zaharlanishlarda zudlik bilan tez tibbiy yordam chaqirish zarur.

Shifokor yetib kelgunga qadar quyidagilarni amalga oshirish kerak:

Jabrlanuvchini zudlik bilan gazlangan hududdan toza havoga olib chiqish kerak;

Jabrlanuvchining qo'l va oyoqlarini ko'tarilgan holatda yotqizish;

Nafas olishiga halaqit beruvchi barcha narsalarni yig'ishtirish (tugmalarni yechib, yoqani ochish, kamarni bo'shatish va boshqalar);

Jabrlanuvchining uxlab qolmasligini nazorat qilish. Jabrlanuvchini yurgizish taqiqlanadi;

Jabrlanuvchi nafas olmayotgan bo'lsa, unga toza havoda yoki havosi yaxshi aylanadigan xonada sun'iy nafas oldirishni boshlash lozim;

Nashatir spirtini hidlatish;

Hushiga kelgan vaqtida yiqilib, jarohatlanmasligi uchun choralar ko'rish;

Jabrlanuvchining holati yaxshi bo'lsa, issiq choy yoki qahva ichirish;

Kislorod yostig'i yordamida kislorod berish.[4]

Is gazini aniqlovchi moslamalar

11:06 A II 61 "EXIS" AJdan gaz analizatorlarini sotib olish Gaz analizatorining mos modelini tanlash uchun ma'lum bir ishlab chiqarish turining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. qurilma - bu holda uskunadan foydalanish eng samarali bo'ladi.[6]

Gaz analizatorlarining yirik ishlab chiqaruvchilari quyidagi muammolarni hal qila oladigan yuqori texnologik qurilmalarni ishlab chiqaradilar.

.. portlovchi gaz-havo aralashmasi paydo bo'lishini o'z vaqtida aniqlash orqali portlash xavfini oldini olish; ...

uskunaning ishlamay qolishi bilan bog'liq gaz qochqinlarni aniqlash;

uglerod oksidi kabi hayot uchun xavfli moddalar to'planishini o'z vaqtida aniqlash va yo'q qilish.[7]



Xulosa:

Is gazidan zaharlanishlar sonining oshishi bu masala bilan jiddiy shug'ullanish kerakligini anglatmoqda. Shu sababli aholi o'rtasida is gazi nima ekanligini, undan zaharlanishni oldini olish uchun qanday choralar ko'rish va texnika taraqqiyoti zamonamizda is gazini aniqlab uni bartaraf etadigan qurilmalarni omma e'tiboriga taqdim etish zarur masala hisoblanadi. Yuqorida tavsiya etadigan qurilmalarimiz shu muammolarni qisman bo'lsada hal etadi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.Nigmatov, M.Tojiboev "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi". Toshkent. "Iqtisod – moliya". 2021 [1]
2. Gazinazarova S, Ibragimov E, Asilova S.S Xayot faoliyati havfsizligi-T 2020 [2]
3. I.Axmedov. Ishlab chiqarish jarayonlari xavfsizligi. T 2012 [3]
4. Benjamin O. ALLI.Fundamental Principles of occupational health and safety. Geneva 2008[4]

Internet saytlar:

5. www.ziyo.edu.uz[5]
6. www.mchs.gov.uz[6]